



## ODIL YOQUBOVNING “ULUG‘BEK XAZINASI” ROMANIDA BADIY OBRAZ YARATISH

Azimidin NASIROV\*

### Annotatsiya

Nasirov Azimidin Normamatovichning “Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida badiy obraz yaratish” nomli maqolasoda olim va shoh Mirzo Ulug‘bekning fojiali hayoti, umrining so‘ngi damlaridagi hayotiy ziddiyatlar zamiridagi faoliyatining badiy talqini haqida so‘z yuritiladi.

O‘zbek adabiyotining iste’dodli namoyondasi, so‘z san’atkori Odil Yoqubov bir qator asarlari bilan nasr taraqqiyotda katta va o‘chmas iz qoldirdi. Adibning “Ko‘hna dunyo” romanida Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy obrazlari yaratilishi bilan uzviylikda, ular yashagan murakkab davr muhiti, uning inson ruhiyatiga ta’siri talqin etilgan. “Ulug‘bek xazinasi” romanida esa Mirzo Ulug‘bekning umrini so‘ngi damlaridagi tarixiy ziddiyatlar ifodalangan. Romanda Ali Qushchining hayoti, ijodi, amalga oshirayotgan ishlarining Mirzo Ulug‘bek hayoti bilan bog‘liqligi haqidagi talqinlar haqida so‘z yuritiladi.

Roman sujetidan o‘rin olgan voqealar silsilasida Mirzo Ulug‘bek va o‘z farzandi Abdulatif o‘rtasidagi ziddiyatlardan istirob chekkan shaxs qismati, farzandining taxt uchun o‘z otasiga qarshi kurash boshlashi, bundan ruhlangan ba’zi saroy amaldorlarining xiyonatlari tarixiy haqiqat nuqtai nazaridan talqin etilganligiga jiddiy e’tibor qaratilgan.

Ayniqsa, ana shunday murakkab tarixiy sharoitda shogirdi Ali Qushchining ustozи Mirzo Ulug‘bekka bo‘lgan ishonchi va sadoqati, farzandi Abdulatif xiyonat qilib turgan bir vaqtda uning ustoziga munosabatini o‘zgarmaganligi, aksincha, hayotini xavf ostiga qo‘yib, saroydagi yillar davomida yaratilgan asarlarni saqlash uchun qilgan harakatlari yorqin lavhalarda talqin etilganligi, bu esa tarixiy haqiqatning badiy ifodasi ekanligini alohida ta’kidlaydi.

Tarixiy faktlardan oziqlangan Odil Yoqubov romanda Mirzo Ulug‘bek va o‘g‘li Mirzo Abdulatif ziddiyatlaridan, uning toj-taxt uchun olib borayotgan kurashlaridan istirob chekayotgan xal hayoti, uning murakkablashish jarayoni, podshohlikdagi kurashlardan ozor chekkan xalq fojealari juda asosli ifodalangan. Mirzo Ulug‘bek ruhiy olamidagi qaramaqarshiliklarning vujudga kelish sabablari, istiroblari monologik va diologik nutq asosida tasvirlanganligini alohiha qayd etadi. Odol Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanidagi talqinlar badiy adabiyotda Mirzo Ulug‘bek va Ali Qushchi o‘rtasidagi insoniy munosabatlarning mavjudligini ko‘rsatadi. Har ikki buyuk siyemoning badiy obrazi juda asosli talqin etilganligini isbotlaydi. Roman voqealarini rivojoda monologik, diologik nutqning o‘ziga xos badiy funksiyasi mavjudligi isbotlangan.

**Kalit So‘zlar:** Badiylik, Tarix Haqiqati, Obrazlilik.

\* Prof. Dr., Semerkant Devlet Üniversitesi, el-mek: nosirovazmaddin@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-5720-8943

## ADİL YAKUBOV'UN ROMANI “ULUĞBEK HAZİNESİ”NDE SANATSAL İMGE YARATIMI

### Özet

Makalede, bilim insanı ve padişah olan Mirza Ulubey'in yaşamının son çatışmaları bağlamında çalışmalarının sanatsal yorumu ve trajik hayatı anlatılmaktadır.

Özbek edebiyatının yetenekli bir temsilcisi ve bir söz ustası olan Adil Yakubov, birçok eseriyle nesir türünde büyük bir iz bırakmıştır. Yazarın “Eski Dünya” romanı, Ebu Ali ibn Sina'nın ve Ebu Rayhon Beruni'nin yaşadıkları karmaşık ortamın tasviri ve bu ortamın insan ruhuna etkileri ile ayrılmaz bir şekilde bağlantılı olduğu açıklanmıştır. Ulubey'in Hazinesi romanı, Ulubey'in hayatının son yıllarındaki tarihi çelişkileri sunuyor. Romanda Ali Kuşcu'nun yaşamını, eserlerini Mirza Ulubey'in hayatıla ilişkili olduğu yorumu anlatıyor.

Romandaki olaylar dizisi, Mirzo Ulubey ile çocuğu Abdulatif arasında, çocuğunun taht için babasına karşı savaşı ve tarihi gerçeklerden esinlenilmiş bazı saray yetkililerinin ihaneti arasında bir ihtilaftan muzdarip bir adamı betimliyor. Yorumlama yapılıyor. Özellikle bu karmaşık tarihsel bağlamda, Ali Kuşcu'nun hocası Mirza Ulubey'e olan inancı ve bağlılığı, oğlu Abdulatif'in kendisine ihanet ettiği zaman hocasına olan tutumunu değiştirmediği, bunun yerine, yıllar boyunca yarattığı eserlere hayat riski altında koruma çabalarının, tarihsel gerçekliğin sanatsal bir ifadesi olan canlı sahnelerde yorumlandığını vurguluyor.

Tarihsel gerçeklerden ilham alan Adil Yakubov romanda, Mirza Ulubey ve oğlu Mirza Abdulatif'in çatışmalarından muzdarip insanların yaşamları, taht için mücadeleleri, ulusun karmaşıklıkları ve krallığın trajedilerini (tarihi) esaslara dayanarak anlatıyor. Mirza Ulubey'in manevi dünyasındaki çelişkilerin sebeplerinin, hikayelerinin monolog ve diolojik söylemlere dayandığı özellikle vurgulanıyor. Adil Yakubov'un romani olan ‘Ulubey Hazinesi’nin yorumları, Mirza Ulubey ve Ali Kuşcu arasında kurgusal bir insan ilişkisi olduğunu göstermektedir. Her iki büyük simanın sanatsal görüntüsü çok temelli olduğu kanıtlanıyor. Romanın olayları, monolog ve diolojik söylemin gelişiminin kendi sanatsal işlevine sahip olduğunu kanıtlamıştır.

**Anahtar Kelimeler:** Bediilik, Tarihsel Gerçeklik, Kurgusallık.

## CREATING AN ARTISTIC IMAGE IN THE NOVEL “ULUGBEK’S TREASURE” ODIL YAKUBOV

### Annotation

The article tells about the tragic life of the scientist and king Mirzo Ulugbek, the artistic interpretation of his activities in the context of the conflicts of his late life.

A talented representative of the Uzbek literature and a master of word, Odil Yakubov left a huge mark in the development of prose with a number of his works. In his work "The Old World" the writer, along with creation of Abu Ali ibn Sina and Abu Rayhan Beruni's portrayals, analyzed complicated period in which they lived and its impact on human spirituality. The novel "Ulughbek's Treasure" describes historical conflicts of Mirza Ulughbek in the period of his late life. The novel also depicts the life, creativity, and works of Ali Kushchi with relation to Mirza Ulughbek's life.

In the series of events depicted in the novel we can see a person's destiny suffering from the conflict between the king Mirza Ulughbek and his son Abdulatif, his son's struggle

against his father's throne, and the treachery of some palace officials in the context of serious historical facts.

Especially, in this complex historical period of time, the writer tried to interpret vivid scenes regarding the faith and devotion of Ali Kushchi towards his mentor Mirza Ulughbek, that he did not change his attitude towards his mentor when his son Abdulatif betrayed him, but instead, at the risk of his life, his effort to preserve the works created over the years through an artistic expression of historical reality.

Odil Yakubov, who thoroughly investigated and being impacted by historical facts, carefully described the lives of the people suffering from the conflicts of Mirza Ulughbek and his son Mirza Abdulatif in the novel, his son's struggle for the throne, the complexities of the nation, and the tragedies of the kingdom. The writer emphasizes the reasons of the contradictions in the spiritual world of Mirza Ulughbek, illustrating them in the form of monologue and dialogical discourses. The interpretation in Odil Yakubov's novel "Ulughbek's Treasure" shows that there is a human relationship between Mirza Ulughbek and his student Ali Kushchi in fiction. The artistic image of both great figures proves to be very well-grounded. The existence of special literary function of monologue and dialogical discourse is proved within development of the novel events.

**Key Words:** Fiction, Historical Reality, Figurativeness.

Iste'dodli yozuvchi Odil Yoqubov o'zbek romanchiligining taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shgan ijodkorlardan biridir. Ayniqsa, tarixiy romanlari bilan o'tmish voqeligini, o'sha davr hayatini, tarixiy shaxslar siyosini asosli tasvirlagan. Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinası" romanining bosh qahramonlari etib real tarixiy shaxslarni olar ekan, ularning xilma-xil to'qnashuvlarida nutqning dialog shaklidan, ruhiy kechinmalar, o'z olamidagi ziddiyatlarda esa monologlardan unumli foydalanadi. Shuning uchun bu asarda til xarakterga, xarakter esa tilga o'tadi. Bunday dialektik qonuniyat romandagi dialog va monologlarda, personajlarning o'zaro to'qnashuvlarida yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

Adabiyotshunos H. Boltaboev qayd etganidek: «Ulug'bek xazinası» romanida Odil Yoqubovni birgina Ulug'bek taqdiri qiziqtirmaydi (garchand u yirik tarixiy shaxs bo'lsa-da), Ulug'bekning ulug'ligi ma'rifatli shoh va ajoyib insonligidagina emas, u yaratgan ilmiy adabiy merosda aks etgan... Tarixiy janrning asosiy belgilardan biri shundan iboratki, yozuvchi kitobxon ko'zi o'ngida o'sha davr ruhiyatini tiriltira olishi kerak. Buning uchun u e'tiborni tarixiy shaxslar taqdiriga qaratadimi, davrning suronli kurashlari manzarasini chizadimi yoki e'tiborni ko'proq qahramonlar tiliga qaratadimi, bu harakatlar yuqoridagi bosh maqsadga yo'naltirilishi hamda shu kunga daxldor ma'naviy masalalarga ham munosabat bildirilishi kerakki, ana shundagina tarixiy asar xalq ma'naviyatini xazinasidan joy oladi(1). Yozuvchi tarixiy shaxslar siyosini yaratar ekan, davr muhitining murakkab, ziddiyatlari qirralarini obrazlar tizimi orqali ochib beradi. Toju taxt kurashlarining avj olishi natijasida Ulug'bek Mirzoning istirobli hayoti yorqin lavhalarda o'z aksini topgan.

Asarda faqat toju taxt kurashlari emas, ota va o'g'il o'rtasidagi ziddiyatlar, adolat va adolatsizlik, haq va haqsizliklar ham jiddiy ifodasini topgan. Insonni shakillanishida muhit etakchi rol o'ynaydi. Shaxs xarakteriga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu jihatdan o'rta asrdagi jaholat bag'rida yorqin yulduz bo'lib porlagan Mirzo Ulug'bek hayotining so'nggi damlarida, uning nodir ilm xazinalaridan, bitgan asarlari-yu, suyukli shogirdlaridan, rasadxonasi-yu, buyuk temuriylar paytaxt etgan Samarqanddan benasib bo'lislis arafasida o'g'li Abdullatif bilan qilgan quyidagi dialogi xarakterlidir:

*“...Menga hech narsa kerak emas. Bu toju taxt, sultanat, shon-shuhrat bari o’zingga buyurg’ay! Otangga yolg’iz rasadxonani in’om etsang bas! Bir burda non, bir qumg’on sovuq suv bo’lsa etar. Azmim qolgan umrimni “Ziji Ko’ragoniy”ni tugatib, mutolaa bilan kun kechirmoqdur!..*

*Shahzoda keskin burilib qaradi. Siyrak mo’ylovining uchlari dikrayib, lablari titrab:*

*- Tag’in rasadxona! Tag’in “Ziji Ko’ragoniy”, - dedi bo’g’ilib. Mudarris dastorini o’ragan barcha murtadlarni qanotingiz ostiga olib, din peshvolarini oyoq osti qilmishsiz! Bul uchun haq taoloning qahriga, payg’ambar alayhissalomning qarg’ishiga uchrab, taxtu tojdan, sultanatdan ayrilmishsiz. Ammo istig’for aytmogni tilamay, tavba-tazarru qilmoqni istamay, tag’in rasadxonani o’ylaydursiz!..”(2, 111-bet).*

Bu dialogni o’zini ilmu ma’rifat rivojiga baxshida etgan ota bilan taxtni egallash uchun hech qanday kurashdan qaytmaydigan, shunga intilayotgan valiaxd shahzoda o’rtasidagi keskin ma’naviy olishuv deyish mumkin. Biz bu keskin olishuvdan kichkina parcha keltirdik, xolos. Ota va noqobil farzand o’rtasidagi bu dialog ikki xil xarakterning ichki mohiyatini ko’zgudek yaqqol ko’rsatishga xizmat qiladi. Dialog bilan tanishgan kitobxon Ulug’bek bilan Abdullatifni ota-bola bo’lsa-da, bir-biriga zid ikki olam deb tasavvur qiladi. Bu dialog zamirida ilm bilan jaholat, yaxshilik bilan yomonlik, ezzulik bilan qabohat o’zaro kurashayotgandek tuyuladi. Ulug’bek ota sifatida farzandi Abdullatifga acheinadi, kuyinadi va o’g’liga otalik mehri jo’shib, nasihat qilmoqchi bo’ladi. Lekin farzand Abdullatif buni, otaning beg’araz niyatini to’g’ri qabul qilmaydi.

Sohibqiron Amir Temurning suyukli nabirasi, butun umri e’zozda o’tgan, buyuk alloma Mirzo Ulug’bek “bir burda non, bir qumg’on sovuq suvg’i” rozi bo’lib, qolgan umrini ilmga, asarlarini tugatishga sarflamoqchi bo’lganida noqobil o’g’il otasining bu oliyanob, pok niyatini o’zicha masxara qiladi. Ota ilm-fandan, rasadxonadan gap ochsa, ochko’z farzand bobosi Amir Temur tillalarining yashiringan joyini otadan dag’dag’a bilan so’rashga jur’at etadi.

Bu dialog davomida Mirzo Ulug’bek obrazining yana boshqa bir qancha tipik xususiyatlari kitobxon ko’z o’ngida namoyon bo’ladi. Bu o’rinda Ulug’bekning o’ziga xos otalik burchi, farzandiga aytmoqchi bo’lgan nasihatlari, ilm yo’lidagi zahmatkashligi uning donishmand keksalarga xos quyidagi nutqi orqali namoyon bo’lganligini alohida ta’kidlashni istardik:

*“ – Bu suhbatdan yolg’iz muddaom – otalik nasihatimni bermoq edi. Taassuflar bo’lg’aykim, senga padar nasihat emas, oltin kerak ekan!.. – Shahzoda gapini bo’lmoqchi ekanini ko’rgan Mirzo Ulug’bek keskin qo’l siltab: “To’xta!” deb buyurdi. – Ota so’zi amri vojib, deb bilurseymi, yo’qmi – ixtiyor senda. Va lekin so’nggi nasihatimni eshit, xohla o’z padaringni qatl et, xohla Movarounnahr sarhadidan haydab, darbadar qil – boz ixtiyor sendadur. Lekin yolg’iz tilagim: ilm yo’lida otang qilgan ishlarga, uning shogird va ustodlari ga tegmagaysen. Tegsang... ota qarg’ishiga uchrab toabad badnom bo’lursen!.. Ota rozi – xudo rozi, yodingda bo’lsing: al qasosil minalhaq! Hech bir yomonlik intiqomsiz qolmaydur! Senga aytadurg’on boshqa so’zim yo’q! Chaqir yasovulingni!”(2, 114-bet).*

Ko’rinadiki, bu dialogning oxiri Mirzo Ulug’bekning monologik nutqiga aylanib ketgandek tuyuladi. Ulug’bek o’zi bilan o’zi gaplashgandek, yuragini kemirayotgan zardali so’zlarni nobakor o’g’liga to’kib tashlaydi. Farzandiga amrimni, nasihatimni eshit, deb da’vat qiladi. Ayni vaqtida taxtga o’tirgan shahzoda o’g’lining mavqeiga mos holda “boz ixtiyor sendadur”, deydi. Bu o’rinda alamzada otaning dil so’zlarini o’g’liga aytishdan boshqa ilinji qolmagan edi. Bu holat esa yuqorida keltirilgan dialogda o’z o’rnida berilgan, ya’ni Mirzo Ulug’bek nutqi tarkibida “ota qarg’ishiga uchrab toabad badnom bo’lursen”, “ota rozi – Xudo rozi”, “hech bir yomonlik intiqomsiz qolmas”, “al qasosil minalhaq” kabi aforizmlarning

berilishi ulug' alloma Ulug'bek xarakterini tpiklashtirishga xizmat qiladi. Chunki hech bir ota o'z jigarbandi, farzandiga yomonlikni ravo ko'rmaydi, uni nohaq qarg'amaydi. Lekin Abdullatif toifasidagi farzandlar o'z otasining ilmini, ustozlariyu shogirdlarini oyoq-osti qilar ekan, bu nobakor farzandlarning qilmishlari intiqomsiz qolmasligi ota bilan o'g'il o'rtasidagi dialogda real aksini topgan.

Yozuvchi Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinası" romanida ana shunday real va tipiklashgan ota va o'g'il obrazlarining ruhiy holatlarini shundaygina ko'rsatib qo'y'a qolmay, balki dialoglar vositasida, shiddatli tortishuvlarda ularning qalbini kitobxonga yaqqol ochib ko'rsatishga muvaffaq bo'lган. Bu romandan olingen qaysi bir dialogning jumlasiga e'tibor bermang, ular asar g'oyasini ochishga, personajlarning xarakteridagi tipiklik xususiyatlarini to'liq gavdalantirishga bo'ysundirilgan. Yozuvchining bu tarixiy romanida dialoglarga juda ko'p o'rın berilganligini alohida ta'kidlash zarur.

Adabiyotshunos Y. Solijonov badiy asardagi dialog va monologlar haqida so'z yuritib shunday yozadi: «Yozuvchi o'z qahramonini yaratish ekan, unga ma'lum ma'noda munosabat bildiradi: uni yo yoqlaydi, yoki inkor qiladi, uchunchi yo'l yo'q! Bunday munosabat avtor nutqi orqali qahramon portiretini yaratishda, uning xatti-harakatlarini tasvirlashda, yon-atrofdagi narsa buyumlarni ifodalashda, ruhiy dunyosini tahlil etishda ko'rindii»(3). Shunisi muhimki, asarda faqat Mirzo Ulug'bek, Abullatif, Ali Qushchi kabi tarixiy shaxslargina emas, Salohiddin zargar, Qalandar Qarnoqiy singari to'qima obrazlar ruhiyatini yoritishda dialog va monologlar ham kuchli uslubiy vosita bo'lib xizmat qilgan.

Masalan, asardagi Salohiddin zargar obrazini olaylik. Uning kiyim-kechagi, boyligi, hatto harakatlari, so'zlash tarzi ham zar, oltin bilan aloqador qilib yaratilgan:

*" – Nabiram ne degan edi? Tilagi nima edi uning? So'zla, kampir! – dedi Salohiddin zargar, ovozi qaltirab. Kampir engining uchi bilan ko'zini artib:*

*- Nuridiydam, nabiram, - dedi o'ksib, - musofir shoir Qalandar bilan go'rimiz bir bo'lzin degan edi...*

*"Musofir shoir Qalandar bilan go'rimiz bir bo'lzin?! Yo rabbiy, bu kampir ne deydi?.."*

*Bo'sag'ada garangsib turgan Ali Qushchining xayolini Salohiddin zargarning:*

*- Shoir, Qalandar?! – degan xitobi bo'ldi. Hozirgina peshanasini mushtlab, go'daklarday nola chekib yotgan chol o'rnidan turib ketgan, ko'zları chaqnab aylanasiiga qarar, lekin, chamasi hech kimni ko'rmas edi.*

*- Bu so'zni qaydan topding, kampir?! Men kim, xoja Salohiddin zargar, bo'stonimning guli, yolg'iz nabiram, ko'zimning nuri, suyukli nabiramni o'sha gado bilan bir erga ko'mamenmi? Ne deb aljiraysen, kampir?*

*- Qo'zichog'im, - dedi kampir yig'lab. – Qo'zichog'imning iltijosi...*

*- Bas! Yolg'iz nabiramning boshiga etgan o'shal gado! Ham o'zining boshiga etdi ul betavfiq, ham gulimning!.. (2, 359-bet).*

Yozuvchi asardagi Salohiddin zargar obrazini kichik-kichik detallar orqali yorqin, ta'sirli chizishga muvaffaq bo'lgan. Odatda, farzandi, nabirasi o'limi ustida kuyingan haqiqiy bobo oltin-javohirlarni, boylikni o'yamasligi kerak. Lekin Salohiddin zargar u toifadagi bobolardan emas. Odil Yoqubov yuqorida keltirilgan va boshqa dialoglar yordamida Salohiddin zargarning molparast, Qalandar Qarnoqiy kabi oddiy kishilarni, beva-bechoralarni mensimaydigan xarakteridan kelib chiqib, Shayx Ubaydullo Xo'ja Ahror bilan bo'lgan

suhbatida ham uning nutqini alohida individuallashtirishga erishgan. Shuning uchun adabiyotshunos M. Qo'shjonov roman haqida so'z yuritib: «Ulug'bek fojiasini, Ali Qushchi shijoatini, Abdullatif xoinligini, mavlono Muhiddin sotqinligini psixologik asosda ko'rsatadigan voqealarni makon jihatdan ham, zamon jihatdan ham fokusga, xarakter va voqealarni kattallashtirib, bo'rttirib ko'rsatadigan ko'zguga solgandek, bir erga jamg'ara oldi» (4).

Yozuvchining tarixiy asarlarida o'sha davr shaxslari obraqi ularning tashqi libosi, kiyim-kechagi yoki ayrim xarakterli detallar fonida xolislik bilan yoritiladi. Masalan, Xoja Salohiddin zargarning fil tishidan yasalgan oltin bandli asosi, kimxobu zarga burkangan liboslari, Shayx Nizomiddin Xomushning simobiyl dastori, qorday oppoq ridosi va boshqa detallar tasviri shular jumlasidandir.

Odil Yoqubov romanlarida qahramonlarni faqat qora bo'yoqlarda ko'rsatmaydi, aksincha, obrazlarning qiyofasi kelishgan, xushsurat, kishini o'ziga rom qiladigan odamlar sifatida ularni xolislik bilan ob'ektiv tasvirlaydi. Yozuvchi bunday obrazlarning qora, jirkanch qilmishlarini qalamga olar ekan, bu xushsurat, kelishgan odamlarning qilmishi bilan qiyofasi o'rtafigi nomutanosiblikka kitobxon diqqatini tortishga muvaffaq bo'ladi. Masalan, romanda tasvirlangan Mirzo Ulug'bekning ham, Xurshida bonuning ham boshiga tushgan kulfatlarda Sulton Jondorning qo'li borligi kitobxonga yaxshi ma'lum. Yozuvchi ana shunday qabih ishlarni amalga oshirgan amir Sulton Jondorni "*soxt-sumbati kelishgan, qop-qora soqoli o'ziga yarashgan*", deb ta'rif-tavsiq qiladi.

“Oqqushlar, oppoq qushlar” romanidagi Muzaffar Farmonov, uning o'g'li Fotih Muzaffarov kabi kishilar obrazini yaratish ekan, ularning portretlarini ham xolis, realistik tasvir tamoyili asosida yaratgan. Jumladan, Muzaffar Farmonovning kiyinishi ham o'z tabiatiga mos: uning ko'rinishidan meshchanligi, boylikka, qimmatbaho narsalarga o'chligi sezilib turadi. Fotih Muzaffarov esa otasining qora ishlarni takrorlash bilan birga, o'zining tashqi ko'rinishi, qiyofasi bilan ham otasiga o'xshab ketadi: “*xushqad, xushsurat, uning vujudidan kuch-g'ayrat va shiddat yog'ilib turar edi*”. Bundan tashqari, romandagi “*odatdagiday bashang kiyinib yuradigan Klara Jamolovna*”, “*qaddi-qomati kelishgan, bitta ham oq tushmagan qalin sochlari hurpaygan Mardon Zokirov*” kabi bir qator obrazlarning ma'naviy, ichki olami bilan tashqi ko'rinishi o'rtafigi ziddiyat insonning murakkab xarakterli hayotini keng miqyosda ko'rsatishga bo'yundirilgan.

### Xulosa

Yozuvchining “Ulug'bek xazinası”, “Ko'hna dunyo” kabi tarixiy romanları, yangi asari – “Osiy banda”ni ko'zdan kechirar ekanmiz, bu asarlarda yozuvchi qahramonlarni ruhiy olamini, qalb dialektikasini ochishga harakat qilsa, ba'zi qahramonlar tasvirida ularning tashqi ko'rinishini xolisona turib chizishga intiladi.

### ADABIYOTLAR

Болтабоев, Ҳ. (1992). Наср ва услуб. Тошкент: «Фан», 56 бет.

Ёкубов, О. (1980). Улугбек хазинаси. Тошкент: Faafur Fulom nomidagi Adabiyet va san'yat nashiroyti. 111 бет.

Солижонов, Й. (2002). Нутқ ва услуб. Тошкент: «Чўлпон», 19 бет.

Кўшжонов, М. (1982). Сайланма. Икки жилдлик. Биринчи жилд. Тошкент: Faafur Fulom nomidagi Adabiyet va san'yat nashiroyti. 301 бет.